

GENDER LEKSIKASINING LINGVOMADANIY KOMPONENT SIFATIDA TARJIMADA QAYTA YARATISH MASALALARI

Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna

Namangan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi

[Tel:943967757](mailto:nargiza3967757@gmail.com). nargiza3967757@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asosan ingliz va o'zbek adabiyotida gender leksik birliklari orqali faollashgan lingvomadaniy ko'rinishlarni jumladan, frazeologik birliklarni badiiy asar nutqida qo'llanishi, badiiylikni yaratishda insonlarning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'langan diniy masalalarni berilishiva ularni tarjimada qayta yaratish masalalari borasida fikrlar bayon etilgan. Muallif tomonidan berilgan ma'lumotlarning asosi sifatida ingliz adabiyoti vakili Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim" Shatlotte Brontening "Jeyn Eyr" hamda Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" asarlariga murojaat qilingan.*

Kalit so'z va iboralar: *gender leksik birliklari, frazeologik birliklar, idiomalar, lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniy component, tarjimada muqobillikka erishish, grammatik-leksik transformatsiya, ikki jins vakillarining diniy qarashlari.*

PROBLEMS OF RECREATING GENDER LEXICON AS A LINGUOCULTURAL COMPONENT IN TRANSLATION

Abdullaeva Nargiza Axmadjonovna

Namangan state university senior lecturer of the Department of English

Language and Literature

[Tel:943967757](mailto:nargiza3967757@gmail.com). nargiza3967757@gmail.com

Annotation: *In this article, the author discusses the linguocultural features activated through gender-related lexical units in English and Uzbek literature, including the use of phraseological expressions in the language of literary works, the representation of religious concepts closely connected with people's daily lives in creating artistic imagery, and the issues of recreating these elements in*

translation. As the main sources of analysis, the author refers to Margaret Mitchell's "Gone with the Wind", Charlotte Brontë's "Jane Eyre", and Theodore Dreiser's "Sister Carrie".

Key words: *gender lexical units, phraseological units, idioms, linguaculture, linguacultural component, achieving equivalence in translation, grammatical-lexical transformation, religious views of representatives of both genders*

ВОПРОСЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Абдуллаева Наргиза Ахмаджоновна

Старший преподаватель кафедры английского языка и литературы

Наманганского государственного университета

[Tel:943967757. nargiza3967757@gmail.com](mailto:nargiza3967757@gmail.com)

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвокультурные явления, активизируемые гендерными лексическими единицами в английской и узбекской литературе, включая использование фразеологических единиц в языке художественных произведений, отражение религиозных концептов, тесно связанных с повседневной жизнью людей при создании художественности, а также вопросы их воссоздания в переводе. В качестве основного материала автор обращается к произведениям представителей английской литературы: Маргарет Митчелл «Унесённые ветром», Шарлотты Бронте «Джейн Эйр» и Теодора Драйзера «Сестра Керри».

Ключевые слова: *гендерные лексические единицы, фразеологические единицы, идиомы, лингвокультурология, лингвокультурный компонент, достижение эквивалентности в переводе, грамматико-лексическая трансформация, религиозные взгляды представителей обоих полов.*

KIRISH.

Tarjima – tillar orasidagi vositachilikka yo'naltirilgan o'ziga xos adabiy faoliyat, ya'ni tillarning rang-baranglik xususiyati asosida paydo bo'ladigan

madaniyatlararo muloqot to'sig'ini yengib o'tish jarayonidir.[1] G'.Salomov ta'biri bilan aytganda xalqlarning o'zaro do'stona munosabat o'rnatishlari, bir-birlarining madaniy boyliklarini o'rganishlari va o'zlashtirishlarini tarjimasiz tasavvur qilish qiyin.[2] Tarjima ikki til o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajaradi, tarjimon shu ko'priqni quruvchisi sifatida ma'suliyat bilan asliyat tili vakillarining madaniyatiga aloqador barcha sohalardan xabardor bo'lishi, ularga putur yetkazmay bir millat madaniyatini boshqa bir millatga tanishtirishi lozim. Masalan, tarjimon gender leksik birliklarini lingvomadaniy jihatdan qayta yaratishda, avvalo asar matnida berilgan voqealar rivojida qatnashuvchi millat tarixini, dinini, urf-odatlari, milliy marosimlari, turmush tarzi hamda ijtimoiy-adabiy sharoitlarini o'rganadi va keyingi o'rinda qayta yaratilishi talab etilgan genderga xos bo'lgan asliyat tili vositalarini va uslubiy yo'llarini tahlil qilib chiqadi. So'nggi vazifa sifatida ona tilida ifodalash uchun kerak bo'ladigan genderologik til birliklarini qidirib topadi. Yuqoridagi jarayonlar yig'indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi asliyatda nutq vositalari orqali berilgan bo'ladi, shuning uchun ularni to'g'ri tarjima qilinishi juda muhimdir.[3]

Frazeologizmlar muloqot birligi sifatida nutqni chiroyli hamda ravon chiqishi uchun xizmat qiladi. Badiiy til ham kommunikativlik xususiyatiga ega bo'lgani sababli mualliflar o'z asarlarida maqol hamda idiomalardan unumli foydalanadilar. Bu kabi frazeologik birliklarni badiiy asar nutqida qo'llanishi, ularni bir tildan ikkinchi tilga adekvat holatda tarjima qilinishi alohida e'tibor talab qiladi. Bu birliklar badiiy matnga emotsional-ekspressivlik hamda obrazlilik baxsh etishdan tashqari, tilning naqadar lug'at imkoniyatlari kengligini belgilab beradi. [4]

Lingvomadaiy komponent sifatida gender leksikasi shakllanishida dinga aloqadorlik masalasi zamonaviy tilshunoslik va gender sohasidagi eng dolzarb va murakkab masalalardan biri sanaladi. Din kuchli ijtimoiy-madaniy omil sifatida erkaklar va ayollarning jamiyatdagi o'rni va roli borasida sezilarli ta'sir kuchiga ega.[5] Badiiylikni yaratishda ijodkor insonlarning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'langan diniy masalalarni chetlab o'ta olmaydi. Badiiy

asarlarning markaziy pozitsiyasidan o‘rin egallagan erkak va ayol obrazlari tasvirida yoki ularning muloqot jarayonlarini ifodalashda, albatta, din va gender leksikasi bevosita to‘qnash keladi. Tajimonlar bu badiiy fenomenani qayta shakllantirishda ma’suliyat bilan ish yuritishlari talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniyatshunoslik XX asr gumanitar fanlarini belgilovchi asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.[6] Tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining kesishish nuqtasida paydo bo‘lgan bu soha til va madaniyatni uzviy bog‘liqlikda o‘rganadi. Lingvomadaniyatshunoslik atamasi dastlab V.N.Teliya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qo‘llanilgan. Uning fikricha, “Lingvomadaniyatshunoslik shaxsiy va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandır”.[7] Til va madaniyat borasida N.V.Timko shunday fikrlar bayon qiladi. “Til madaniyatdan tashqarida, ya’ni ijtimoiy meros bolib qolgan amaliy ko‘nikmalar va g‘oyalar to‘plamidan tashqarida mavjud emas, u bizning turmush tarzimidir. Til nafaqat madaniyatning mulki, balki madaniyatning ilk shartlaridan biridir, til madaniyatning namoyishi yoki ko‘zgusi sifatida emas, balki qisman mustaqil asos sifatida uni ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, bir asos til mutlaqo farqli etnik guruhlariga xizmat qilishi mumkin”.[8] Insonni o‘rab turgan borliq va undagi urf odatlar, marosimlar, hududiy va milliy qadriyatlar, tarixiy jarayonlar, diniy e’tiqod kabi bir qator masalalar millatning madaniy belgisi hisoblanadi. Va aynan olamni milliy anglash tushunchasi zahirida har tomonlama keng, turli xil til konseptlari jamlanmasi yotadi. R.Shirinovaning ta’kidlashicha, badiiy asarlarda olam milliy manzarasi komponentlari realiyalar, ya’ni xos so‘zlar, frazeologik hamda paremiologik birliklar, maqollar, matallar orqali anglashiladi.[9] Badiiy adabiyotda esa bu kabi komponentlar til birliklari yordamida faollashadi. Gender lingvistikasi ham milliy-madaniy tushunchalarni, jumladan, lingvomadaniyatshunoslikni aks ettirishda adabiyotshunoslikning yondosh sohalaridan biri sanaladi. Yuqoridagi fikrlarga chambarchas bog‘liq holda

tarjimada frazeologik birliklarning funksional-uslubiy jihatlarini saqlash eng muhim omillardan biri sanaladi, ekvivalentlik darajalari haqidagi nazariyani ko'rib chiqqan Nida Eugene tarjimada "formal ekvivalentlik" dan ko'ra "dinamik ekvivalentlik" ni ustun qo'yadi. Bu yondashuv frazeologik birliklarni ham shakl, ham uslubiy effekt jihatidan mos keladigan tarzda tarjima qilishni nazarda tutadi. [10]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada asosan lingvomadaniy komponent sifatida gender leksik birliklarining badiiy asarlarda qo'llanishi jumladan, frazeologik birliklarda, idiomalarda hamda madaniyatning ilk belgilaridan bo'lgan erkak va ayol diniy qarashlarida genderlikni aks etishi hamda tarjimonlar tomonidan ularni qayta yaratishda muqobillikka erishish masalari xususida fikrlar bayon etiladi. Har bir nazariya amaliyotda o'z aksini to'pganligi sababli, fikr mulohazalarni asosan ingliz adabiyotining yorqin namoyondalari Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim", Shatlotte Brontening "Jeyn Eyr" hamda Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" asarlari misollari tahlili asosida berishga xarakat qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Frazeologik birliklar lingvomadaniyat belgisi sifatida, matnda bayon etilayotgan millat yoki xalqning madaniyatini tasvirlashda muallifga yordam beradi. Idiomalar bu o'rinda faol frazeologizmlardir chunki millatga xos tarzda shakllangan bu birliklar aynan bir tilga mos va boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilinganda butunlay o'zgacha ma'no ifodalovchi so'z birikmalaridir. Idiomalarda genderlik masalari ikki jihatda namoyon bo'ladi. Ular gender komponentli idiomalar yoki, aksincha, genderlik xoslanishida qo'llanuvchi idiomalardir. Yuqoridagi ikki jihatlarining aynan badiiy asarlarda mualliflar tomonidan berilishi va ularni tarjimadagi ko'rinishlarini misollar bilan tahlilga tortamiz. *"He thought of Carrie and their last meeting. By George, he would have to explain this to Hurstwood. Such a chance half-hour with an old friend must not have anything more attached to it than it really warranted."* [11] *"Он подумал о том вечере, который они провели тогда втроем. Черт возьми, придется как-нибудь*

объяснить это Герствуду. Случайная встреча, полчаса за столиком со старинной приятельницей – стоит ли этому придавать значение?”[12] Ushbu jummalarni o‘zbek tilidagi talqini quyidagicha berilgan. “O‘zi ham hozirgi damda Kerrini va uchovlari birgalikda o‘tkazgan oqshomni o‘ylar edi. Hozirgi narsani endi bir amallab Gerstvudga tushuntirishga to‘g‘ri keladi. Odam eski bitta tanishi bilan tasodifan uchrashib qolib, jinday birga bo‘lganiga ham ota go‘ri qozixonami?”[13] Har bir parchadagi frazeologizmlar talqinida qo‘llanilgan gender leksik birliklariga e‘tiborimizni qaratsak, asl nusxada ularni uchratmaymiz, ammo tarjimada “*it really warranted*” iborasi rus tiliga “*стоит ли этому придавать значение?*” tariqasida o‘girilgan bo‘lsa, o‘zbek tarjimoni tomonidan mohirona “*ota go‘ri qozixonami?*” shaklida genderologik idiomatik birlik bilan almashtirilgan. Grammatik-leksik transformatsiya usulidan foydalanib, mutarjim o‘z uslubini tarjimada shaklan hamda struktural o‘zgarish qilish orqali yaqqol ko‘rsatib bera olgan. Shu bilan birga, mazmunni saqlagan holda, ingliz madaniyatida do‘stining ayoli bilan uchrashib yurish kabi vaziyatlar oddiy holat ekanligini o‘zbek idiomasi bilan kitobxonga to‘liq yetkazib berishga harakat qilgan va bunda gender komponentli leksika tanlovida to‘g‘ri yondashuvni ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, badiiy asarlarda erkak va ayol nutq xususiyatlarini ifodalash maqsadida, ijodkorlar tasviriylikni jilvador usulda berish uchun idiomalarga yuzlanadilar. Masalan, Margaret Mitchell tomonidan erkak nutq birligi sifatida qo‘llanilgan idiomaning tarjimon tomonidan qayta yaratilishiga to‘xtalib o‘tamiz. Asarning ikki qarama-qarshi xarakterga ega bo‘lgan bosh qahramonlari suhbatida, Batler erkaklarcha qat‘iyat bilan Skarlettga murojaat qiladi va bu jarayon ingliz madaniyatiga xos tarzda olijanoblik bilan suhbatdoshini erkalab, so‘ngra ayollarni kamsituvchi achchiq kinoyali idiomadan foydalanish orqali ochib berilgan. “*Just remember, my precious little cheat, the time will come when you win want to borrow more money from me. You’ll want me to bank you, at some incredibly low interest, so you can buy more mills and more mules and build more saloons. And you can whistle for the money.*”[14] Ushbu jummlalar o‘zbek tilida

quyidagicha talqin qilingan. *“Lekin yodda tuting, mening bebaho aldoqchiginam: vaqti kelib, mendan yana pul qarz so‘rashni istab qolasiz. Yangi korxonalar, xachirlar sotib olish, yangi salunlar qurish uchun pulni nihoyatda past foizlarda olgingiz keladi. Gap bunday: siz ularni tuyaning dumi yerga tekkanda olasiz.”*[15] Asliyat tilida berilgan *“you can whistle for the money”* idiomasi tarjimonning mohir reseptorligi sabab *“siz ularni tuyaning dumi yerga tekkanda olasiz.”* shaklidagi muqobiliga tenglashtirilgan. Ushbu idioma Britaniya ingliz tili frazeologizmiga mansub bo‘lib, tegishli manbalarda *“whistle for money means you are not going to give someone money that they have requested”*, ya’ni biror kimga, so‘ralgan pulni bermoqchi emasligingizni ifodalash ma’nosida qo‘llaniladi. Aynan tarjimon tomonidan tanlangan *“tuyaning dumi yerga tekkanda”* frazeologik birikmasi ma’no jihatidan ingliz idiomasi muqobil variant bo‘la oladi. Bu o‘rinda muallifning ikki jins o‘rtasidagi bahs-munozarada erkak kishining ustunligini ko‘rsatuvchi sahnasi tarjimada to‘laqonli ochib berilgan.

Badiiy asarlarda lingvomadaniy jihatlarni gender leksik birliklari bilan ifodalashda maqollar ham faol ishtirok etadi. *“Jeyn Eyr”* asarida shunday parcha keltirilgan *“Friends always forget those whom fortune forsakes”, I murmured, as I undrew the bolt and passed out, I murmured, as I undrew the bolt and passed out.*”[16] Ushbu parcha tarjimon tomonidan o‘zbek tiliga quyidagicha o‘girilgan. *“Omadsiz kishini oshnalari ham unutadi”, degan gap bejizga aytilmagan ekan, deb shivirladim, eshikning ildirgichini yecharkanman.*”[17] Tasodifan to‘yi to‘xtatilgach, yolg‘iz qolgan bosh qahramon ichki his-tuyg‘ulari tasviri uchun qo‘llanilgan ushbu maqol *“Omadsiz kishi, oshna”* kabi gender leksemalari bilan transformatsiyaning qisman kalkalash usulidan foydalanib o‘girilgan. Ingliz madaniyatiga xos bo‘lgan ushbu maqolni *“Do‘st boshga kulfat tushganda bilinar”* maqoli bilan tarjima qilinganda muqobillikka erishilgan hisoblanar edi.

Adabiyotda ikki jins vakillarining diniy qarashlarini aks ettiruvchi gender birliklari tarjimasida muallif uslubini ta’minlash hamda tarjimon mahoratini ko‘rsatish oldingi planda bo‘lishi lozim. Yuqoridagi fikrlarimizni galdagi tahliliy misollarimiz bilan davom ettiramiz. *“Yet after all my task was not an easy one;*

often I would rather have pleased than teased him. My future husband was becoming to me my whole world; and more than the world: almost my hope of heaven. He stood between me and every thought of religion, as an eclipse intervenes between man and the broad sun. I could not, in those days, see God for His creature: of whom I had made an idol.” [16.418] Bolalik chog‘laridan mehrga tashna bo‘lib ulg‘aygan qahramonimiz Jeyn Eyr, o‘z sohibining sevgi iqrorida shu qadar ta’sirlanadiki, natijada uning ichki ruhiyati tasvirida diniy qarashlarga murojaat etiladi. Ushbu parcha tarjimon tomonidan quyidagicha talqin qilingan. *“Biroq bularning barisi menga oson kechmayotgandi, uning bilan muloyimroq bo‘lgim kelar, jahlini chiqarmasam, derdim. Mening bo‘lajak erim men uchun butun borlig‘im, undan-da ortig‘imga aylangandi – salkam uni jannatga bo‘lgan umidim, deb atardim. U xuddi bulutdek, quyoshning yuzuni to‘sgan kabi men va e’tiqodim o‘rtasida turardi. O‘sha kunlari men bandasi bois Xudoni ko‘rmadim. Zero, mana shu bandani men o‘zimga ibrat qilib olgandim.”* [17.443] Din va genderlik tushunchalari uyg‘unlashgan ushbu parchada ayolning qarshi jins vakiliga kuchli muhabbati tufayli yaratganni ham unutib qo‘yishi, sevgan yori uchun nafaqat borlig‘idan, balki butun ruhiyatidan ham kechishga tayyor xilqat ekanligini anglash mumkin. Tarjimon asarda berilgan bu tasviriylilikni qayta yaratishda, muallif g‘oyasini saqlagan holda din va gender leksik birliklari muqobilligiga erishgan. Jumladan, *“My future husband, my whole world, more than the world,”* kabi gender ko‘rsatkichli so‘z birikmalarini *“Mening bo‘lajak erim, butun borlig‘im, undan-da ortig‘im,”* tarzida o‘zbekcha ekvivalentlashtirish, yoki *“my hope of heaven, my thought of religion, God for His creature”* diniy leksik birliklarni *“jannatga bo‘lgan umidim e’tiqodim, Xudoning bandasi”* kabi iboralar bilan tarjima qilinishida mashaqqatli mehnat natijalarini ko‘rish mumkin. Asarning voqealar tizimida erkaklarning diniy qarashlari quyidagicha bayon qilinadi. *“No. There is this difference between me and deistic philosophers: I believe; and I believe the Gospel. You missed your epithet. I am not a pagan, but a Christian philosopher – a follower of the sect of Jesus.”* [16.571] Tarjimon F.Tilovatov ushbu parchani o‘zbek tiliga shunday o‘giradi. *“Yo‘q. Men bilan o‘sha*

siz aytgan faylasuflarning o'rtasida katta farq bor: men faqatgina "Yangi ahd"ga e'tiqod qilaman. Siz sifatlashda adashdingiz. Men butparast faylasuf emasman, nasroniylik dini donishmandiman – Isoning izdoshi." [17.610] Ushbu jumlar asarda Sent-Jon ismli ruhoniylar tomonidan bayon qilinadi va muallif tomonidan qo'llanilgan *"believe the Gospel, a pagan, Christian philosopher, a follower of the sect of Jesus"* kabi bir qator diniy hamda gender leksik birliklari o'zbek tiliga *"Yangi ahd"ga e'tiqod qilmoq, butparast, nasroniylik dini donishmandi, Isoning izdoshi* singari muqobil shakllari bilan almashtirilgan. Faqat aslyatdagi *"deistic philosophers"* so'z birikmasi tarjima tilida *"o'sha siz aytgan faylasuflar"* shaklida berilgan va so'zning gender belgisi semasi saqlagan holda dinga aloqador ma'nosi tushurib qoldirilgan. Buning natijasida muallifning *"deistic"* leksemasining XVII asrda Angliyada paydo bo'lgan va *"hech qanday vaxiyarsiz dinga e'tiqod qiluvchilar"* haqidagi ma'lumoti butunlay boshqa din vakillarini ifodalovchi neytral gender leksikasi *"butparastlar"* bilan o'zgartirilgan. Bundan tashqari Sent-Jonning yuqoridagi o'z diniy qarashlarini qo'llab quvvatlovchi quyidagi jumlar tarjimon tomonidan to'liqligicha tushurib qoldirilgan. *"As His disciple I adopt His pure, His merciful, His benignant doctrines. I advocate them: I am sworn to spread them. Won in youth to religion, she has cultivated my original qualities thus: – From the minute germ, natural affection, she has developed the overshadowing tree, philanthropy. From the wild stringy root of human uprightness, she has reared a due sense of the Divine justice. Of the ambition to win power and renown for my wretched self, she has formed the ambition to spread my Master's kingdom; to achieve victories for the standard of the cross. So much has religion done for me; turning the original materials to the best account; pruning and training nature. But she could not eradicate nature: nor will it be eradicated 'till this mortal shall put on immortality."* [16.572] Lingvomadaniy omil sifatida tarjimada diniy qarashlarni erkak va ayolning gender rollari orqali tahlil qilar ekanmiz, bosh qahramon Jeyn misolida berilgan parchada leksik transformatsiyaning kalkalash usulidan unumli foydalanilgan. Aksincha, asarning keyingi tasviriy ifodasida mutarjim aynan ingliz madaniyatini o'zida mujassam

etgan ruhoniyni diniy qarashlarini izohlovchi jummalarni tushurib qoldirish bilan muallifning lingvomadaniy jihatdan kitobxon ongiga singdirmoqchi bo'lgan ma'lumotlariga putur yetkazilganligini ko'ramiz. Ushbu parchani biz o'z talqinimizda quyidagicha berishga qaror qildik va undagi gender komponentli birliklarga e'tibor qaratamiz. *“Men Uning shogirdi sifatida sof, rahmdil, xayrixoh ta'limotlarini qabul qildim va ularni himoya qilishga, tarqatishga va'da berdim. Yoshligimdan dinga ergashdim, u mening asl fazilatlarimni shu tarzda rivojlantirib, tabiiy mehr-muhabbatning mayda zarrasidan to soyali xayriya daraxti misol o'stirdi. Inson sifatida to'g'ridan-to'g'ri yovvoyi bir mavjudotda ipidan ignasigacha ilohiy adolat tuyg'usni paydo qildi. Shaxsiyatimdagi ayanchli, kuch va shon-shuhrat qozonish istagidagi “Men”im o'rniga Xojamning buyukligini, xoch bayrog'i ostida g'alaba qozonishdek vazifasini tarqatishni shakllantirdi. Din men uchun juda ko'p ish qildi. Borliqdagilardan unumli foydalanib, u tabiatni boshqaradi. Inson o'limga mahkum qilingan ekan tabiat yashaydi, toki ular mangu hayot kechirishga loyiq topilsalar, tabiatni vayron qiladilar.”* Parchaning asl matniga diqqatimizni qaratsak, undagi olmoshlarning genderlik faollashuvini kuzatamiz. Asosan uchunchi shaxs birlikdagi gender ko'rsatkichli *“his”* hamda *“she”* leksemalari tarjimada g'alizlik keltirib chiqarishi tayin. Shu bois bu kabi gender leksikasi tarjimasida muqobillikni ta'minlash maqsadida matnda jins kategoriyasini ifodalovchi olmoshlar kim yoki nimaga ishora qilayotganini aniqlashtirdik. Erkaklar uchun qo'llanuvchi *“his”* leksemasi nasroniylik dini payg'ambari Isoga nisbatan, ayollik ko'rsatkichi bo'lgan *“she”* esa din va tabiat tushunchalariga qarata qo'llanilgan. Bundan tashqari *“shogird, xayriya daraxti, inson, yovvoyi mavjudot”* kabi neytral gender birliklari hamda erkak jins vakili uchun *“Xojam”* gender leksemasi tarjimaga mos muqobil variant sifatida tanlab olindi.

XULOSALAR.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tahlilimizdagi ingliz adabiyoti namunalarida, frazeologik birliklar qatorida gender ko'rsatkichli idiomalar hamda maqollardan ko'p bora qo'llanilgan. Buning sababi ingliz madaniyatida muloqot

birliklari sifatida ham ogʻzaki ham badiiy asarlarda gender frazeologizmlarining salmoqli ulushi borligini taʼkidlash lozim. Tarjimonlar esa mazmun, shakl hamda uslubni saqlagan holda lingvomadaniy jihatdan genderlik faollashuvini qayta yaratishda samarali natijalarga erishganlar. Badiiy asar personajlari tasvirida esa genderlek va diniy qarashlar masalalari bir-birini doimiy taqozo etadi. Inson borki u qaysidir bir dinga eʼtiqod qiladi va muallif oʻz gʻoyasini lingvomadaniy jihatdan oʻquvchiga yetkazishda diniy tushunchalarga, albatta, murojaat qiladi. Tarjimon ham oʻz navbatida muallif izidan borib, asliyatdagi uslubdan voz kecha olmaydi. Ushbu jarayonda gender leksikasi muallif va tarjimon uchun kerakli til vositasi vazifasini oʻtaydi. Tanlangan ingliz badiiy asarlarini oʻzbekcha tarjimalari tahlili shuni koʻrsatadiki, Margaret Mitchelning “Samollarda qolgan hislarim” asarini tarjimon R.Axtamova tomonidan qilingan tarjimasida gender leksik birliklarining lingvomadaniy jihatdan muqobillikka erishish darajalari Sharlotte Brontening “Jeyn Eyr” romonini tarjimon F.Tilovatov hamda Teodar Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” asarini bilvosita rus tilidan tarjimon E.Nosirovlar tomonidan qilingan tarimalariga nisbatan toʻliqlik kasb etadi. Aynan gender komponentli hamda gender koʻrsatkichli leksik birliklar tarjimalarida keyingi ikki asarlarda qisman muqobillik darajalari kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov.G. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – B.21
2. Salomov.Gʻ. Til va Tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – B.119
3. Asiljonova.Sh. Badiiy tarjimada milliy kolorit va uni saqlash jarayonidagi muammolarning tahliliy natijalari// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS).Google scholar. Volume 2. Issue 5. May, 2022. – B.244
4. Qosimova.A.M. Oʻzbek va Ingliz frazeologiyasi tahlili//Scientific progress. Volume 2. Issue 7. 2021. – B.299

5. Дежина Т. П. Этапы становления концепта «гендер» в зарубежной и отечественной лингвистике // Филологические науки. Вопросы теории и практики. -2017. -№. 4-1 (70).- С.76-79
6. A'zamova.D.Sh. Lingvomadaniy atamalarning leksik-semantik xususiyatlari va nazariy qarashlar// “Ekonomika i sotsium” №2(117) – 2. 2024. – B.63
7. Телия.В.Н. Русская фразеология. – М.: 1982. – С.20-25
8. Тимко.Н.В. Фактор “культура” в переводе, – Курск, гос. ун-т. – 2-е изд., 2007. – С.28
9. Shirinova.R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: fil. fan. dok (DSc) diss. avtoref... – Toshkent, 2017. – B.9
- 10.Eugene. Nida. A. Toward a Science of Translating. – Brill Archive, 1964. – P.159
- 11.Dreiser.T. Sister Carrie. New York: Grosset and Dunlap publisher. – 1917. – P.118
- 12.Драйзер.Т. Сестра Керри. Пер.с англ. М.Волосов. – Азбука, 2024. – С.55
- 13.Drayzer.T. Baxtiqaro Kerri. Ruschadan Erkin Nosirov tarjimasi. –T.: “Yangi nashr”, 2019. – B.115
- 14.Mitchell.M. Gone with the wind. – USA: Warner books edition,1993. – P.643
- 15.Mitchel.M. Shamollarda qolgan hislarim: roman (I-II-kitoblar) – Toshkent: Pravo-press, 2020. – B.413
- 16.Bronte.Ch. Jane Eyre: – Free eBooks at Planet eBook.com. – P.454
- 17.Brote.III. Jeyn Eyr. – Tarjimon Fozil Tilovatov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – B.483